



Zamira F. ERMATOVA,
O'qituvchi, SamDPI ilmiy tadqiqotchisi, Samarqand, O'zbekiston
E-mail: zamiraermatova104@gmail.com. ORCID 0009-0002-3478-2576

SamDU professori, f.f.d Sh.Nigmatova taqrizi asosida

POLITICAL FEAR IN UZBEK SOCIAL CONSCIOUSNESS: A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE SOVIET PERIOD EXPERIENCE

Annotation

This article analyzes the formation of the phenomenon of fear within the system of public consciousness from socio-philosophical and historical perspectives. The author argues that fear, as a crucial component of human cognition, exerts a diverse influence on the development of society. The study examines the social nature of fear, its history, types, and forms of manifestation in contemporary society.

Key words: Fear, public consciousness, philosophy, history, social psychology, security, culture.

ФЕНОМЕН ПОЛИТИЧЕСКОГО СТРАХА В ОБЩЕСТВЕННОМ СОЗНАНИИ УЗБЕКОВ: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ОПЫТА СОВЕТСКОГО НАРОДА

Аннотация

В данной статье анализируется формирование феномена страха в системе общественного сознания с социально-философской и исторической точек зрения. Утверждается, что страх, как важная составляющая человеческого мышления, оказывает различное влияние на развитие общества. В исследовании рассматривается социальная природа страха, его история, типы и формы проявления в современном обществе.

Ключевые слова: Страх, общественное сознание, философия, история, социальная психология, безопасность, культура.

O'ZBEKLAR ZIHNIYATIDA SIYOSIY QO'RQUV FENOMENI: SOBIQ ITTIFOQ DAVRI TAJRIBASI - IJTIMOIIY-FALSAFIY TALQIN

Annotatsiya

Maqolada sovet davrida o'zbeklar ijtimoiy ongi va zihniyatida shakllangan siyosiy qo'rquv fenomeni ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Siyosiy qo'rquvning mafkuraviy nazorat, siyosiy bosim, senzura va ijtimoiy moslashuv mexanizmlari bilan bog'liqligi ochib beriladi. Tadqiqot davomida tarixiy-tahliliy, qiyosiy va germenevtik metodlardan foydalanilgan. Tahlillar natijasida siyosiy qo'rquvning nafaqat shaxsiy hissiyot, balki ijtimoiy ongni boshqarish vositasi sifatida ham faoliyat yuritgani asoslanadi. Shuningdek, ushbu fenomenning jamoaviy xotira orqali keyingi avlodlar tafakkuriga ta'siri yoritiladi.

Kalit so'zlar: Siyosiy qo'rquv, ijtimoiy ong, zihniyat, sovet davri, mafkura, ijtimoiy nazorat, jamoaviy xotira, O'zbekiston, ijtimoiy falsafa.

Kirish. Qo'rquv nafaqat alohida shaxsning ruhiy holatini, balki jamiyatning umumiy kayfiyati, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlarini ham aks ettiradi.

Tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida qo'rquv turli shakllarda namoyon bo'lgan bo'lsa-da, uning ijtimoiy ongga ta'siri doimo muhim ilmiy muammo sifatida e'tiborni tortib kelgan. (Michel Foucault-nazorat va intizom, Erich Fromm-erkinlikdan qo'rquv, Zygmunt Bauman-modern jamiyatdagi xavotir, Hanna Arendt-totalitarizm, Sergei Kara-Murza-sovet ongining manipulyatsiyasi. Ulrich Beck va O'zbek olimlari: Naim Karimov-jadidlar va repressiya, Rauf Parfi-ichki qullik, mafkuraviy bosim, Shavkat Rahmon –"ichingdagi xoin" g'oyasi, Baxtiyor To'rayev-ijtimoiy ong, milliy ong, tarixiy xotira, Erkin Yusupov-shaxs va jamiyat, erkinlik, Hamid Sodiq - siyosiy-huquqiy adabiyotlar tarjimalari, Kamoliddin Rabbimov - giosiyosiy-ijtimoiy tahlil, Ozod Sharafiddinov va Habibulla Karimov – falsafiy tafakkur).

XX asrning ikkinchi yarmi Sovet Ittifoqi xalqlari hayotida murakkab va ziddiyatli davr sifatida tarixda qoldi. Mazkur davrda shakllangan siyosiy tizim, mafkuraviy nazorat va ijtimoiy boshqaruv mexanizmlari millionlab insonlarning dunyoqarashi hamda kundalik turmush tarziga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Ayniqsa, qo'rquv omili davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning yashirin, biroq samarali mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'ldi.

O'zbekiston ham sobiq ittifoq tarkibidagi respublika sifatida ushbu jarayonlardan chetda qolmadi. Mafkuraviy bosim, siyosiy nazorat, ochiq fikr bildirishdagi ehtiyotkorlik, diniy va milliy qadriyatlarga nisbatan cheklovlar fuqarolarning ijtimoiy ongida muayyan qo'rquv shakllarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Natijada qo'rquv faqat individual hissiyot sifatida emas, balki ijtimoiy xulq-atvorni tartibga soluvchi omil sifatida ham faoliyat yurita boshladi.

Bugungi kunda mustaqillik davrida shakllanayotgan yangi ijtimoiy tafakkurni chuqur anglash uchun sovet davrida mavjud bo'lgan qo'rquv mexanizmlarini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki har qanday jamiyatning bugungi ruhiy va ma'naviy holati uning tarixiy tajribasi bilan uzviy bog'liqdir.

Tarixiy tajriba esa xalq og'zaki ijodi, adabiyoti va qadriyatlarida namoyon bo'ladi. (Anatoliy Rubakov-Deti Arbata, Aleksandr Solzhenitsyn-Gulag Arxepilag, Odil Yoqubov – Diyonat, Oqqushlar, oppoq qushlar asarlari, O'tkir Hoshimov-Ikki ishi orasi, Tushda kechgan umrlar, Erkin

Vohidov, Abdulla Oripov she'riyati) Ushbu asarlarda mavjud davr muammosi turli personajlar hayoti, kechmishlari, o'y hayollari orqali chuqur taxlil etiladi

Ayniqsa, markazlashgan siyosiy tizimlar hukm surgan jamiyatlarda qo'rquv ijtimoiy boshqaruvning muhim vositalaridan biriga aylangan bo'ladi. (Foucault, 1977). Sovet davrida siyosiy tizimning barqarorligini ta'minlash maqsadida mafkuraviy nazoratning turli shakllari qo'llanilgan.

Natijada fuqarolarning siyosiy faolligi, fikr bildirish madaniyati va ijtimoiy xulq-atvorida dastlab ehtiyotkorlik elementlari, keyinchalik esa to'laonli qattiq xavotir va qo'rquv shakllangan.

Bizning tadqiqot maqsadimiz ham tarixiy-tahliliy, qiyosiy, germeneytik va ijtimoiy-falsafiy metodlardan foydalangan holda sovet davri tajribasi asosida o'zbeklar zihniiyatida siyosiy qo'rquv fenomenining shakllanish omillari va uning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ochib berishdan iboratdir.

Xususan, siyosiy qo'rquv muammosi falsafa, sotsiologiya va siyosatshunoslik fanlarida keng o'rganilgan bo'lib turli nazariyalar ilgari surilgan: "hokimiyat va nazorat mexanizmlari sifatida", "erkinlik va xavfsizlik o'rtasidagi ichki ziddiyat deb tahlil qilgan". Ulrich Beck (1992) esa "xavf jamiyati" nazariyasi orqali xavotir va qo'rquvning zamonaviy ijtimoiy hayotdagi o'rnini yoritadi.

Tarixiy manbalar, ilmiy adabiyotlar va nazariy konsepsiyalarni baxoliqdrat o'rganish asosida sovet davrida shakllangan siyosiy qo'rquvning rivojlanishi bir necha omillar bilan bog'liq bo'lganligi namoyon bo'ldi:

Birinchiidan, "mafkuraviy monopoliya"ning mavjudligi yani jamiyatda boshqacha fikrlar cheklangan. Insonlar davlat tomonidan tasdiqlangan qarashlardan chetga chiqishmagan, chiqqanlar xavf ostida qolgan. Bunday odamlarga "Vatan xoini", "Siyosatga qarshi" kabi ayiblovlar qo'yilgan.

Jamiyat fikrlar xilma-xilligi, plyuralizmga asoslanadi kabi umuminsoniy tushunchalar faqat qog'ozlardagina bo'lgan degan xulosani beradi.

Ikkinchiidan, siyosiy nazorat tizimi odamlarning kundalik xulq-atvorlariga ham ta'sir ko'rsatgan. Ish jamoalarida, ko'cha-kuyda, oilalarda "ortiqcha gapirma", "har narsani hamma joyda aytavermagin", "devorni ham qulog'i bor", "Uzumini eb bo'gini surishtirma", "siyosatga aralashma", "jim yurgan uzoq yashaydi" kabi tarbiyaviy ko'rsatmalar berilgan. Bu esa ehtiyotkorlikning ijtimoiy norma sifatida shakllanishiga xizmat qilgan.

Uchinchiidan, diniy va milliy identifikatsiya masalalarida ham muayyan ehtiyotkorlik kuzatilgan. Natijada ayrim qadriyatlar ko'proq oilaviy va norasmiy muhitda saqlab qolingan. (Sovet davrida Checheniston Respublikasida diniy ta'lim olib borilgan, ayol-qizlarning uzun kuylak va rumoli taqiqlanmagan. Bir davr va bir mafkura hukmron jamiyatda Markaziy Osiyo xalqlari qadriyatlariga nisbatan esa agrissiv, buzg'unchi siyosat olib borildi, o'z dinining talab va takliflarini inkor etuvchi, yomon ko'ruvchi, ularga amal qilayotganlarga "eskicha" "qoloq" deb munosabatda bo'luvchi fuqarolarni etishtirdi).

Umuman aytganda o'zining o'zbek ekanligidan, ijtimoiy kelib chiqishidan, xukumron tilni bilmasligidan uyaladigan, o'z ona tilini unitib boshqa tilni, madaniyatni sevadigan avlodlar shakllandi.

Xususan, 1980-yillarning ikkinchi yarmiga kelib sobiq Sovet Ittifoqida boshlangan qayta qurish (perestroyka) va oshkoralik (glasnost) siyosati jamiyat hayotining ko'plab jabhalarida jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Ushbu jarayonlar nafaqat siyosiy va iqtisodiy tizimning yangilanishiga, balki odamlar tafakkuri, ijtimoiy ongi va ruhiy dunyosining o'zgarishiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Zotan, yillar mobaynida insonlar ishongan mafkura notog'ri deb talqin qilindi, odamlarga sizni fikringiz, hayot tarzangiz, ideallaringiz va boshqa ko'plab qadriyatlarangiz noto'g'ri deb aytiladi.

Ushbu yangicha fikr ayniqsa, uzoq yillar davomida shakllanib kelgan, o'rganib qolingan turmish tarzini kechirayotgan yoshi katta, o'rta yosh ziyolilar va umuman ishchi mexnatkashlar tomonidan juda og'riqli qabul qilindi.

Qayta qurish davriga qadar jamiyatda siyosiy masalalar haqida ochiq fikr bildirish, mavjud muammolarni muhokama qilish yoki rasmiy qarashlardan farq qiluvchi nuqtai nazarni ilgari surish ko'pchilik tomonidan xavfli holat sifatida qabul qilinardi.

Oshkoralik siyosati esa asta-sekin ushbu chegaralarni yumshata boshladi. Matbuotda ilgari taqiqlangan mavzular paydo bo'ldi, tarixiy voqealarga yangicha baho berish imkoniyati yuzaga keldi, fuqarolarning ijtimoiy faolligi ortdi. Biroq siyosiy qo'rquvning zaiflashishi bir zumda sodir bo'lmadi. O'nlab yillar davomida shakllangan ehtiyotkorlik stereotiplari odamlar ongida saqlanib qoldi. Ko'pchilik fuqarolar yangi imkoniyatlardan foydalanishga shoshilmadilar.

Ular avvalgi tajriba ta'sirida siyosiy o'zgarishlarning vaqtinchalik bo'lishi mumkinligini o'ylab, ehtiyotkorlikni davom ettirdilar. Bu holat ijtimoiy ongda tarixiy xotiraning kuchli ekanligini ko'rsatadi.

Qayta qurish davrida siyosiy qo'rquvning bir shakli asta-sekin boshqa shaklga aylana boshladi. Agar ilgari qo'rquv asosan siyosiy nazorat bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, 1980-yillarning oxiriga kelib jamiyatda noaniqlik qo'rquvi kuchaydi. Odamlar endi siyosiy jazodan emas, balki ertangi kunning noma'lumligidan, iqtisodiy qiyinchiliklardan va ijtimoiy beqarorlikdan xavotir ola boshladilar.

Sobiq ittifoq respublikalarida tom ma'nodagi "xays" boshlandi, bu yoshlar tarbiyasida, boshqaruvda, jamiyatning har bir soxasida namoyon bo'ldi. O'zbek jamiyatida ham ushbu jarayonlar yaqqol kuzatildi. Ziyolilar tomonidan milliy tarix, madaniyat va ma'naviy merosni o'rganishga qiziqish ortdi. Ilgari cheklangan ayrim masalalar ochiq muhokama qilina boshlandi.

Milliy o'zlikni anglash jarayoni faollashdi. Shu bilan birga, yangi sharoitga moslashish zarurati odamlar ongida ma'lum darajada ikkilanish va xavotirlarni ham yuzaga keltirdi. Qayta qurish davri yana bir muhim jihatni namoyon etdi. U siyosiy qo'rquvning jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini ochib berdi.

Uzoq vaqt davomida qo'rquv hukmron bo'lgan muhitda yashagan insonlar erkin fikr bildirish madaniyatini darhol egallay olmadilar. Bu esa fuqarolik faolligi va ijtimoiy tashabbuslarning rivojlanishida ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Shunga qaramay, qayta qurish davri ijtimoiy ong transformatsiyasining muhim bosqichi bo'ldi.

Aynan shu davrda ko'plab fuqarolar tarixiy voqelikni yangicha anglash, mustaqil fikrlash va mavjud stereotiplarni qayta ko'rib chiqish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Natijada siyosiy qo'rquvning mutlaq hukmronligi asta-sekin zaiflashib, uning o'rnini ijtimoiy faollik, milliy o'zlikni anglash va fuqarolik mas'uliyati kabi yangi qadriyatlar egallay boshladi.

O'zbek jamiyatida bu holat mahalla, mehnat jamoalari va oilaviy munosabatlar orqali mustahkamlangan. Natijada ehtiyotkorlik va vazminlik ijtimoiy qadriyat sifatida shakllangan.

Xulosa. Jamiyatdagi qo'rquvni qanday yo'qotish mumkin. Shaxs bilan jamiyat bir yakdil mexanizm bir organizm biri ikkinchisiz mavjud bo'lmaydi, shuning uchun shaxsga aloxida da'vo chorasi jamiyatga aloxida da'vo chorasi qo'llab bo'lmaydi, ikkalasiga ham bir xil nazariya, da'vo chorasi ishlaydi. M: psixologiyada shaxsni qo'rquv xavotirdan olib chiqish uchun shu bezovtalik nuqtasi qidirib topiladi, qayerdan

kelib chiqdi, sababi nima bo'ldi deb uni bartaraf etiladi va natijaga erishiladi.

Tafakkurdagi qo'rquvni o'chog'ini topish uchun "Aslida nimadan qo'rqadi" deb tadqiqot o'tkazib ko'rish kerak ko'chada, parklarda, shunchaki nimadan qo'rqasiz emas balki turli variantlar berib ko'rib natija olish kerak.

Bu masalalar bo'yicha turli davlatlarda tadqiqotlar o'tkazilib nazariyalar qilingan masalan fuqarolar nimalardan qo'rqadi va uni qanday bartaraf etsa u qo'rquvlar chekinadi. Bu ilmiy fan sifatida o'rganilagan, tadbiq etilgan va yechim ham berilgan.

Birinchi nazariya bu Totalitar va avtoritar nazariyasi: Bu shakl qo'rquvda nafaqat siyosiy balki, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va umuman turmushning barcha tarmoqlariga ta'sir qiladi va hayot sifati tushib ketadi.

Sovet davrida o'zbeklar zihniyatida shakllangan siyosiy qo'rquv murakkab ijtimoiy-falsafiy hodisa hisoblanadi. Uning shakllanishida mafkuraviy nazorat, siyosiy boshqaruv, oilaviy tarbiya va tarixiy tajriba muhim rol o'ynagan. Siyosiy qo'rquv nafaqat o'sha davr ijtimoiy ongining tarkibiy qismi, balki ayrim jihatlari bilan jamoaviy xotira orqali keyingi avlodlarga ham hali hamon ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Demak, qayta qurish davri siyosiy qo'rquv fenomenining tarixiy evolyutsiyasida burilish nuqtasi bo'lib xizmat qildi. Ushbu davrda qo'rquvning mazmuni, vazifalari va namoyon bo'lish shakllari o'zgardi. Bu esa o'zbeklar ijtimoiy ongi va zihniyatidagi transformatsion jarayonlarni tushunishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Bu juda qiziqarli va uzoq mavzu "Qo'rquv haqida gapirish uchun qo'rqmaslik kerak aslida".

ADABIYOTLAR

1. Bauman, Z. (2006). Liquid Fear. Cambridge: Polity Press.
2. Beck, U. (1992). Risk Society: Towards a New Modernity. London: Sage.
3. Fromm, E. (1941). Escape from Freedom. New York: Farrar & Rinehart.
4. Foucault, M. (1977). Discipline and Punish: The Birth of the Prison. New York: Pantheon Books.
5. Halbwachs, M. (1992). On Collective Memory. Chicago: University of Chicago Press.
6. Arendt, H. (1973). The Origins of Totalitarianism. New York: Harcourt Brace.
7. Yurchak, A. (2006). Everything Was Forever, Until It Was No More. Princeton: Princeton University Press.
8. Giddens, A. (1991). Modernity and Self-Identity. Stanford: Stanford University Press.
9. Mannheim, K. (1936). Ideology and Utopia. New York: Harcourt Brace.
10. Scott, J. C. (1990). Domination and the Arts of Resistance. New Haven: Yale University Press.
11. Anatoliy Rubakov. "Deti Arbata".
12. Aleksandr Solzhenitsyn "Gulag Arxepilag",
13. Odil Yoqubov – Diyonat, Oqqushlar, oppoq qushlar asarlari.
14. O'tkir Hoshimov-Ikki ishik orasi, Tushda kechgan umrlar.